“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Xorijiy davlatlar politsiya xodimlarining uy-joy ta’minotiga oid huquqlarining qiyosiy tahlili

Lola Radjapova,
Ichki ishlar vazirligi akademiyasi Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi katta o‘qituvchisi, y.f.b.f.d
Huquqshunos
e-mail: lolaradjapova8808@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada ayrim MDH davlatlarining ichki ishlar organlari (politsiya) xodimlarining ijtimoiy himoyasiga oid kafolatlari o‘rganilib tahlil qilingan. shuningdek ichki ishlar organlari (politsiya) xodimlarining uy-joy ta’minotiga oid huquqlari hamda huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasiga oid normativ hujjatlari bilan qisman qiyosiy tahlil qilinib mazmun mohiyati yoritilgan. Shu bilan birga xodimlarning uy-joy ta’minotiga oid huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish yuzasidan fikr mulohazalar bayon qilingan.

Калит сўзлар. ichki ishlar organlari xodimlari, ijtimoiy himoya, huquqiy asoslar, xorij tajribasi, uy-joy ta’minoti, turarjoy, ipoteka krediti

Аннотация. В данной статье изучены и проанализированы гарантии социальной защиты сотрудников органов внутренних дел (полиции) некоторых стран СНГ, а также проведен частичный сравнительный анализ прав и правовых основ обеспечения жильем сотрудников органов внутренних дел (полиции) с нормативными документами по социальной защите сотрудников органов внутренних дел Республики Узбекистан. Освещена сущность и содержание данных вопросов. Кроме того, представлены соображения по расширению прав и льгот сотрудников, связанных с обеспечением жильем.

Ключевые слова. сотрудники органов внутренних дел, социальная защита, правовые основы, зарубежный опыт, жилищное обеспечение, жилье, ипотечный кредит.

Annotation. In this article, the guarantees of social protection for employees of internal affairs bodies (police) of some CIS countries were studied and analyzed, and a partial comparative analysis of the rights and legal bases of providing housing for employees of internal affairs bodies (police) with regulatory documents on social protection of employees of internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan was conducted. The essence and content of these issues are highlighted.

Keywords. employees of internal affairs bodies, social protection, legal foundations, foreign experience, housing security, housing, mortgage loan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini takomillashtirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada, O‘zbekiston qonunchiligida ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishga oid tartib-qoidalar belgilangan. Shu bilan birga, xodimlarning ijtimoiy himoyasini takomillashtirish borasida xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va milliy tizimga tadbiq etishga qaratilgan chora-tadbirlar soha samaradorligini oshirishi shubhasiz.

Bu borada rus olimi D.V.Vasilyev “xorij tajribasini o‘rganish jamiyatni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari va yo‘llarini belgilab olish, bashariyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonidagi yanglishuvlar va xato yondashuvlarga qayta yo‘l qo‘yilishining oldini olish imkonini beradi” degan[8].

Shuningdek, professor M.X.Rustambaev ham qayd [9], qonunchiligimizning deyarli barcha sohalarida xalqaro normalar e’tirof etiladi deb ta’kidlagan.

Ushbu sohadagi xorijiy tajribani o‘rganish, qonunchiligidagi samarali normalarini qabul qilish imkoniyati ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining faoliyati samaradorligiga yordam beradi. Shu o‘rinda ichki ishlar organlari xodimlarini uy-joy ta’minoti huquqiga oid ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasiga to‘xtalib o‘tsak.

MDH davlatlarida ichki ishlar organlari (militsiya) xodimlarining uy-joy ta’minoti bilan bog‘liq vaziyat rivojlangan mamlakatlardagidek qulay kechmagan. Bu o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasiga ham tegishli bo‘lgan. Birinchi navbatda, iqtisodiy vaziyat va iqtisodiy rivojlanish sur’atlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Masalan, Belarus Respublikasi Prezidentining 2010-yil 27-oktabrdagi ayrim farmonlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi farmoniga muvofiq “turarjoy binolarini qurish (rekonstruksiya qilish) yoki sotib olishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash belgilangan”[2].

Unga ko‘ra, xodimlarning yashash sharoitlarini yaxshilash uchun binolar berilishi mumkin bo‘lgan. Xususan, turarjoy binolari qurish uchun yer uchastkalarini kim oshdi savdosisiz olgan xodimlar bir vaqtning o‘zida boshqa uy-joy qurishda davlat yordamiga umid qila olmagan [2].

Shuningdek, mazkur farmonga ko’ra, qishloq fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan aholi punktlarida yashovchi fuqarolar (xodimlar)ni hisobga olish tegishli qishloq ijro qo‘mitalari tomonidan, ijtimoiy foydalanish uchun turarjoy olish huquqiga ega bo‘lgan xodimlar esa qishloq va tumanlar ijroiya qo‘mitalari tomonidan amalga oshiriladi [2].

Tojikiston Respublikasining 2004-yil 17-maydagi “Militsiya to‘g‘risida”gi 41-sonli qonunining 27-moddasiga ko‘ra, “militsiya

xizmatiga qabul qilingan shaxslar va turar-joy bilan ta’minlanmagan, alohida xonadon yoki uy shaklidagi xizmat turar-joyi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan normalar bo‘yicha, uchastka inspektorlariga esa – lavozimga kirishgan kundan boshlab olti oydan kechiktirmay beriladi. Vazirlik va idoralarni shartnoma asosida qo‘riqlayotgan ichki ishlar organlari xodimlariga tegishli vazirlik va idoralar mablag‘lari hisobidan xizmat uy-joyi ajratiladi. Militsiya organlarida o‘n yildan ortiq ishlagan militsiya xodimlari, shuningdek vafot etgan militsiya xodimining oila a’zolari boshqa turarjoy bermasdan turib rasmiy turar-joydan chiqarib yuborilmaydi”[3].

Qonunchilikka ko‘ra, “uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan ichki ishlar organlari xodimlariga yakka tartibdagi yoki kooperativ uy-joy qurilishi uchun 20 yil muddatga bo‘lib-bo‘lib to‘lash va kreditning 50 foizini tegishli budjet mablag‘lari hisobidan to‘lash sharti bilan imtiyozli kredit olish huquqi berilgan. Ichki ishlar organlari va muassasalari uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan xodimlariga qonun hujjatlarida belgilangan moliyalashtirish manbalari hisobidan uy-joy sotib olish huquqiga ega. Shunigdek, davlat hokimiyati organlari tomonidan yigirma va undan ortiq yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan militsiya xodimlariga, hamda xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lganlarning oila a’zolariga kommunal mulkda bo‘lgan bepul turarjoy maydonini o‘tkazadi”[3].

Armaniston Respublikasining politsiya xodimlarini ijtimoiy ta’minlashga oid tashkiliy masalalari Armaniston Respublikasining 2001-yil 16-apreldagi “Politsiya to‘g‘risida”gi qonuniga[9] muvofiq tartibga solinadi. Mazkur qonunning 34-moddasi (“Harbiy xizmatchilar uchun uy-joy”)ga asosan “Harbiy xizmatchilar, oddiy harbiy xizmatni o‘tagan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari bundan mustasno, doimiy yashash joyiga ega bo‘lgunga qadar, xizmat ko‘rsatish yashash joylari bilan ta’minlanadi”[4].

Shuningdek, Armaniston hukumati tomonidan belgilangan tartibda ularga turar-joyni ijaraga berish yoki kvartira sotib olish uchun pul kompensatsiyasi to‘lanadi. Qonunning 13-moddasiga ko‘ra, “nogiron bo‘lib qolgan va xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan (vafot etgan) xodim yoki harbiy xizmatchilarning oila a’zolari turar-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lsalar, ular Armaniston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartibda kvartira yoki tomorqa uchastkasi bilan ta’minlanadi. Kamida 20 yillik xizmat yillariga ega bo‘lgan xodim yoki harbiy xizmatchilar, yoshi, sog‘lig‘i holati, shtatlari qisqarishi yoki Qurolli Kuchlar tarkibining soni bo‘yicha qisqarishi bo‘yicha zaxiraga o‘tkazilgan va kamida 15 yillik xizmat stajiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar, ushbu qonunning 13-moddasida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar, shuningdek, harbiy xizmatni o‘tash vaqtida halok bo‘lgan (vafot etgan) harbiy xizmatchilarning oila a’zolari o‘zlari egallab turgan

turar-joy maydonini xususiylashtirish jarayonida Armaniston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan huquq va imtiyozlardan foydalanadilar”[4].

Ukrainaning 2015-yil 2-iyuldagi “Milliy politsiya to‘g‘risida”gi qonunining “Politsiya xodimlarining ijtimoiy himoyasi” deb nomlangan 9-bobiga ko‘ra, davlat politsiya xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kafolatlaydi. Ukraina Ichki ishlar vazirligining tegishli mablag‘lari va mahalliy budjetlar hisobidan berilgan kreditning 50 foizini 20 yil muddatga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan yakka tartibdagi va kooperativ uy-joy qurish uchun kredit olish huquqiga ega. Shu bilan birga, mahalliy hokimiyat organlari politsiya xodimlariga imtiyozli shartlarda uy-joyni 50% gacha chegirma bilan sotishi ham mumkin[5].

Qozog‘iston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarini uy-joy bilan ta’minlash mexanizmi qisman o‘rnak bo‘lishi mumkin. Uy-joyga muhtoj bo‘lgan Qozog‘iston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari xizmatni o‘tash vaqtida xizmat uy-joylari bilan to‘liq ta’minlanadi, 10 yil va undan ko‘proq xizmat muddatiga yetganda, ular ixtiyoriy ravishda ushbu turarjoyga egalik huquqini qoldiq qiymati bo‘yicha sotib olish huquqiga ega[6].

Rossiya politsiyasida Rossiya harbiylariga o‘xshash “politsiya ipotekasi” mavjud bo‘lib, “Politsiya to‘g‘risida”gi Federal qonuniga asosan, xodim uy-joyini yaxshilash maqsadida ipoteka krediti olish yuzasidan murojaat qilganida, uning ish staji, muqaddam kredit olgan bo‘lsa kredit olishga to‘sqinlik qiluvchi ma’lumotlar yo‘qligi, uy-joyini haqiqatdan ham yaxshilashga muxtojligi yuzasidan hujjatlar taqdim qilganida, unga imtiyozli ipoteka krediti taqdim qilinadi[7]. Bu samarali mexanizm bo‘lib, mazkur tajriba O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari qonunchiligiga tadbiq qilinishi tizimda uy-joy uchun navbatda turgan xodimlarning soni qisqarishiga, yillab navbat kutish holatlari kamaygan bo‘lar edi.

Shu o’rinda Y.V.Bikovskayaning quyidagi fikrlariga qo’shilamiz: “Germaniya, Avstriya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya va boshqa bir qator mamlakatlarda politsiya xodimlarining pul ta’minoti darajasi mamlakatlarning iqtisodiy munosabatlari, shuningdek, ushbu davlatlarda ichki ishlar organlari xodimlarini uy-joy va boshqa sohalarda imtiyozli kreditlash dasturlari mavjudligidan kelib chiqib, politsiya xodimlariga aksariyat hollarda uy-joy muammolarini mustaqil ravishda hal qilish (turar-joy sharoitlarini yaxshilash) imkonini beradi. MDH hududidagi davlatlariga kelsak, shuni aytish mumkinki, ularning huquqiy tizimida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun uy-joy sohasida bir qator huquqiy kafolatlarning mavjudligi hali ularning real ta’siri haqida gapirishga imkon bermaydi”[11].

Buyuk Britaniya politsiyasi mahalliy hokimiyatlarga bo‘ysunadigan bir qator yirik hududiy bo‘linmalardan iborat bo’lib, politsiya ma’muriyati politsiya xodimlarini ijtimoiy himoyalash uchun pul to‘laydi, uning bir qismi markaziy hukumat - IIV dotatsiyasi bilan qoplanadi. Politsiya xarajatlarining qolgan qismi

esa politsiya xizmati hududining mahalliy hokimiyat organlari tomonidan to‘lanadi[10].

Uy-joy dasturi esa “affordable housing”, ya’ni “arzon uy-joy” deb nomlanib, uyning o‘rtacha narxining mamlakatdagi o‘rtacha yillik ish haqiga nisbatini bildiradi. Ushbu koeffitsient ko‘chmas mulk narxlarining joriy darajasi adolatli yoki adolatli emasligini aniqlash imkonini beradi. Uy-joy dasturi bo‘yicha yordam birinchi navbatda asosiy davlat funksiyalarini bajaradigan fuqarolarga, shifokorlar, o‘qituvchilar, o‘t o‘chiruvchilar, politsiya xodimlari, shaharsozlik tizimida ishlaydiganlarga qaratilgan”[10].

Shuningdek, shahar siyosatining yangi reglamentida Buyuk Britaniya hukumati arzon uy-joy ehtiyojlarini bozor taklifi bilan qondira olmaydiganlar uchun deb hisoblanishini qonunlashtirish niyatini bildirgan. Bunday uy-joy sotib olish huquqi tegishli milliy dastur ishtirokchilariga kafolatlanadi. Narxlar va qayta sotish cheklovlari tufayli bu mulk ochiq bozorda sotilmaydi. Uning qiymati mulk joylashgan joyda 3,5-4 o‘rtacha yillik ish haqidan yuqori bo‘lmasligi kerak. Kam budjetli uylar yoki kvartiralar sotib olmoqchi bo‘lganlar aholining ushbu sohaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun maxsus tuzilgan notijorat tashkilotlari bo‘lgan uy-joy shirkatlariga murojaat qilish huquqiga ega[10].

Bundan tashqari, “uy-joy shirkatlari faoliyatini moliyalashtirish davlat tomonidan markazlashtirilgan organ – uy-joy korporatsiyasi orqali amalga oshiriladi. U mahalliy organlarning faoliyatini nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiradi, hamda xususiy kapitalni hamkorlikka jalb qiladi. Buyuk Britaniya hukumati mamlakat bo‘ylab ajratilgan moliyaviy resurslarning teng taqsimlanishini diqqat bilan kuzatib boradi”[10]. Masalan, kuzatishlar davomida ayniqsa qishloq joylarda badavlat shahar aholisi tomonidan ikkinchi marta uy-joy sotib olish tufayli uy-joyning narxi oshsa, hukumat darhol arzon qishloq uy-joy komissiyasini tuzadi.

Mahalliy hukumatlar uchun, masalan, komissiya soliqqa tortish bazasini kengaytirishni, xususan, ikkinchi uy-joy uchun soliq imtiyozlarini 50% dan 10% gacha kamaytirishni tavsiya qildi. Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining uy-joy fondi bozordagi o‘rtacha qiymatdan ancha past narxlarda sotib olish va ijaraga berish uchun mo‘ljallangan.

Milliy qonunchilimizga ko‘ra, yuqoridagiga o‘xshash imtiyoz mavjud bo‘lib, ichki ishlar organlari xodimlariga “tayyor holda” uy-joy topshirish bilan qiyoslasak bo‘ladi. Shuningdek, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 38-moddasida “uy-joy olishga va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj deb topilgan ichki ishlar organlari xodimlari belgilangan tartibda uy-joy maydoni olishi, turarjoylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun O‘zbekiston Prezidenti tomonidan belgilangan tartibda va miqdorlarda pullik kompensatsiya to‘lanishi, O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda uzoq muddatli, imtiyozli ipoteka kreditlaridan foydalangan holda kvartiralar olish huquqi beriladi va yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun yer uchastkalarini

elektron onlayn-auksion vositasida sotib olish xarajatlarining o‘rni qoplanishi to‘g‘risidagi qoida mustahkamlangan”[1] bo‘lib, O‘zbekistonda ichki ishlar organlari xodimlarining uy-joy ta’minoti himoyasiga oid qonun-qoidalar aynan bizning milliy qonunimizda kengroq aks ettirilganligi, huquq va imtiyozlari bevosita qonun darajasida ko‘proq mustahkamlangan, deb ishonch bilan ayta olamiz.

Shunday bo‘lsa-da, amalda ichki ishlar organlari xodimlari uy-joy ta’minoti uchun yillab navbatda turganliklarini yoki bir martalik nafaqa uchun ham oylab ovoragarchiliklarni amaliyot ko‘rsatib kelmoqda. Xodimning ish faoliyatining samaradorligi albatta uning to‘liq ijtimoiy ta’minlanganiga ham bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning ichki ishlar organlariga taalluqli qonunchiligida xodimlarning uy-joy ta’minotiga oid huquqlarini kengaytirish maqsadida imtiyozli ipoteka krediti berishni kengaytirish, ya’ni imtiyozli foiz asosida kredit olishini yo‘lga qo‘yish “huquqni muhofaza qiluvchi organ ipotekasi”ni joriy qilish lozim deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son qonuni // Elektron manba: https://lex.uz/docs/3027843 (murojaat vaqti: 09.03.2025 yil).

2. Указ Президента Беларусь от 28 октября 2010 г. // Elektron manba: https://neg.by/novosti/ (murojaat vaqti: 10.03.2025 yil) .

3. Закон Республики Таджикистан от 17 мая 2004 г. №41 “О милиции” // Elektron manba: https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=8251 (murojaat vaqti: 08.03.2025 yil).

4. Закон Республики Армения от 16 мая 2001 г. №ЗР-177 “О полиции” // Elektron manba: https://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=29396 (murojaat vaqti: 08.03.2025 yil).

5. Закон Украины от 02 июля 2015 г. №40-41 “О Natsіональной Полиции” // Elektron manba: https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/580-19#Text (murojaat vaqti: 08.03.2025 yil).

6. Постановление Правительства Республики Казахстан от 29 августа 2001 г. N 1127 “Об утверждении Правил премирования, оказания материальной помощи и установления надбавок к должностным окладам работников органов Республики Казахстан за счет средств государственного бюджета, а также выплаты бонусов административным государственным служащим” // Elektron manba: http://normativ.kz (murojaat vaqti: 11.03.2025 yil).

7. Федеральный закон Российской Федерации от 07 февраля 2011г. N 3-ФЗ “О полиции” // Elektron manba:https://www.consultant.ru (murojaat vaqti: 09.11.2024); Постановление Правительства РФ от 30.12.2011 г. №1223 “О предоставлении единовременной социальной выплаты для

приобретения или строительства жилого помещения сотрудникам органов внутренних дел” // Elektron manba: https://ipotekaved.ru/ (murojaat vaqti: 09.03.2025 yil).

8. Васильев В.Д. Концепции организации деятельности полиции и возможности их использования в отечественной практике: По материалам США и некоторых стран Западной Европы: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2005. // Elektron manba: http://dissercat.com/content/kontseptsii-organizatsii-deyatelnostipolitsii-i-vozmozhnosti-ikhispolzovaniya (murojaat vaqti: 09.03.2025).

9. Рустамбаев М.Х. Соблюдение требований международно-правовых актов при обеспечении общественной безопасности // O‘zbekiston Respublikasi Harbiy-texnik instituti axborotnomasi. –2020. - №1. – 14 b.

10. Бондарева Е.С. Социальные стандарты по трудовому праву и праву социального обеспечения: автореф. канд. юрид.наук. Москва, 2008 г. – С.28 // Elektron manba: https://www.prlib.ru/item/695920 (murojaat vaqti: 08.03.2025).

11. Быковская Ю.В. Социальная политика в органах внутренних дел зарубежных стран // Монография. Москва. – 2022. – С.13; С.15 (murojaat vaqti: 10.03.2025 yil).